

**AQSH TASHQI SIYOSATIDA YAQIN SHARQ MASALASI: TARIXIY
TAHLIL VA NATIJALAR (ISROIL-FALASTIN MUAMMOSI MISOLIDA)**

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti
Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti
Mardanov Jasurbek Davran ug'li*

Annotatsiya

Ushbu maqolada AQSH tashqi siyosatida Yaqin Sharq masalasi: tarixiy tahlil va natijalar va Isroil-Falastin muammosi hda fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: AQSH, Yaqin Sharq, geosiyosiy tasavvur, tashqi siyosat, shimoliy va sharqiy chegara.

AQShning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy tasavvurlari davlat tashqi siyosiy yondashuvlarini va mintaqaga nisbatan milliy manfaatlarini asoslab berishga yordam beradi. Ushbu geosiyosiy qarashlar, ayniqsa, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin o'zgardi. Ko'p qutbli tuzilishga ega bo'lgan yangi dunyo tartiboti Yaqin Sharq mintaqasining shimoliy va sharqiy chegaralarini kengaytirdi. AQShning ushbu geosiyosiy manzarada tutgan o'rni, shuningdek, mintaqani va uning resurslarini nazorat qilish yo'lidagi sa'y-harakatlari uning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosati evolyutsiyasini aniqlashga yordam beradi. Aynan XXI asrning boshida AQSh davlat boshqaruviga neokonservativ xarakterga ega bo'lgan respublikachilarining kelishi Yaqin Sharq mintaqasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. Bu borada bir necha yangi g'oyalalar ilgari surildi. Xususan, "Katta Yaqin Sharq" va "Yangi Yaqin Sharq" g'oyalari assosida konsepsiylar ishlab chiqildi. AQSh neokonservatorlari ta'sirida Yaqin Sharq mintaqasini keng ma'noda tushuntiruvchi neokonservativ qarashlar tizimi shakllana bordi va keng jamoatchilikka taqdim etildi. Mana shunday qarashlardan biri "Katta Yaqin Sharq" konsepsiysi hisoblanadi. U 2003-yil 6-noyabrda ishlab chiqilgan bo'lib, o'sha paytdagi AQSh Prezidenti Jorj Bush (kichik) so'zlariga ko'ra, Amerika missiyasi konsepsiya orqali erkinlik va demokratiyani keng yoyishni targ'ib qilishdan iboratdir. "Katta Yaqin Sharq" konsepsiyasida geografik kenglikka quyidagi davlatlar kiritiladi: Shimoliy Afrika (Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya), Yaqin, O'rta Sharq va Fors ko'rfazi (Misr, Isroil, Suriya, Iordaniya, Livan, Yaman, Iroq, Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Bahrayn, O'mon, Qatar, Eron) shuningdek, Afg'oniston va Pokiston kiradi.

Isroil asoschisi Devid Ben-Gurion 1948-yil 14-mayida zamonaviy Isroil davlati tuzilganini e'lon qilib, doimiy ta'qib va quvg'inlarda yashagan yahudiy xalqi uchun o'zlarining qadimiy vatanlarida boshpana yaratdi.

Falastinliklar esa Isroiilning yaratilishini o‘zlarining davlatchilik orzulariga to‘sinqilik qilgan “Nakba” (falokat) sifatida ko‘radi.

Shundan keyin yuz bergen urushda ilgari Britaniya hukmronligi ostida bo‘lgan Falastinning yarim arab aholisi, ya’ni 700 000 ga yaqin falastinlik o‘z uylarini tashlab, Iordaniya, Livan va Suriyaga, shuningdek, G‘azo, G‘arbiy Sohil va Sharqiy Quddusga qochgan.

AQSHning yaqin ittifoqchisi bo‘lmish Isroiil falastinliklarni o‘z uylaridan haydab chiqargani haqidagi da’voni inkor etadi va, aksincha, tashkil etilgan kunning ertasigayoq besh arab davlati hujumiga uchraganini aytadi. 1949-yilgi sulh bitimlari urushni to‘xtatdi, ammo rasman tinchlik bo‘lmadi.

Bugungi kunda ham Isroiil aholisining taxminan 20% ini arablar tashkil etadi.

SHUNDAN KEYIN QANDAY YIRIK URUSHLAR BO‘LDI?

1967-yilda Isroiil Olti kunlik urushni boshlab, Misr va Suriyaga zarba berdi. O’shandan beri Isroiil G‘arbiy Sohilni, Iordaniyadan tortib olingan Sharqiy Quddusni va Suriyaning Jo‘lon tepaliklarini ishg‘ol qilgan.

1973-yilda Misr va Suriya Suvaysh kanali va Jo‘lon tepaliklari bo‘ylab Isroiil pozitsiyalariga hujum qilib, Yom Kipur urushini boshladi. Isroiil ikkala davlatning qo‘sishini uch hafta ichida orqaga surib tashladi.

Isroiil 1982-yilda Livanga bostirib kirdi va Yosir Arofat boshchiligidagi minglab falastinlik jangchilar 10 haftalik qamaldan keyin dengiz orqali evakuatsiya qilindi. 2006-yilda Hizbulloh ikki isroillik askarni asirga olganida Livanda yana urush boshlandi va Isroiil bunga javob qaytardi.

2005-yilda Isroiil 1967-yilda Misrdan bosib olingan G‘azodan chiqib ketdi. Ammo 2006, 2008, 2012, 2014 va 2021-yillarda G‘azoga Isroiilning havo reydlari va falastinliklarning raketa hujumlari natijasida notinchliklar bo‘ldi, ba’zan transchegaraviy bosqinlar ham kuzatilardi.

Urushlardan tashqari, 1987-1993-yillar va 2000-05-yillarda yana ikkita Falastin intifadasi (qo‘zg‘oloni) bo‘lgan. Ikkinchisi Hamasning isroilliklarga qarshi xudkush portlashlari to‘lqini bilan bog‘liq.

TINCHLIK UCHUN NIMALAR QILINGAN?

1979-yilda Misr va Isroiil 30 yillik adovatga barham berib, tinchlik shartnomasi imzoladi. 1993-yilda Isroiil Bosh vaziri Ishoq Rabin va Arofat Falastinning cheklangan muxtoriyati to‘g‘risidagi Oslo kelishuvini imzolaganlarida qo‘l berib ko‘rishdilar. 1994-yilda Isroiil Iordaniya bilan tinchlik shartnomasi imzoladi.

2000-yilda Kemp Devid sammitida prezident Bill Clinton, Isroiil Bosh vaziri Ehud Barak va Arofat yakuniy tinchlik kelishuviga erisha olmadı.

2002-yilgi Arab rejasiga ko‘ra, Isroiil 1967-yilgi Yaqin Sharq urushida bosib olgan yerlaridan butunlay chiqib ketsa, Falastin davlati yaratilsa va falastinlik qochqinlar

uchun “adolatli echim” bo‘lsa, barcha arab davlatlari Isroil bilan normal aloqalarga kirishishga rozi bo‘lishdi.

Vashingtonda isroilliklar va falastinliklar o‘rtasidagi muzokaralar muvaffaqiyatsizlikka uchragan 2014-yildan beri tinchlikka erishish harakatlari to‘xtab qoldi.

Keyinchalik falastinliklar AQSH prezidenti Donald Tramp ma’muriyatini boykot qildi, chunki u 1967-yilda Isroil tomonidan bosib olingan hududda Falastin davlatini yaratishga qaratilgan ikki davlat yechimi yuzasidan AQSHning naq o‘n yillik siyosatini bekor qilgan edi.

HOZIR TINCHLIK UCHUN SA’Y-HARAKATLAR QAY AHVOLDA?

AQSH prezidenti Jo Bayden ma’muriyati Yaqin Sharqda "katta kelishuv"ga erishishga harakat qilmoqda, jumladan, Isroil va Saudiya Arabistoniga o‘rtasida munosabatlarni normallashtirishga.

Oxirgi urush Ar-Riyod uchun, shuningdek, boshqa arab davlatlari, jumladan, Isroil bilan tinchlik bitimini imzolagan ba’zi Fors ko‘rfazi arab davlatlari uchun diplomatik jihatdan noqulaylik tug‘dirmoqda.

ISROIL-FALASTINNING ASOSIY MUAMMOLARI NIMA?

Ikki davlat yechimi, yahudiy manzilgohlari, Quddus maqomi va qochqinlar masalalari.

Ikki davlat yechimi: G‘arbiy sohilda va G‘azo sektorida Isroil bilan birga falastinliklar uchun davlat yaratish ko‘zlangan kelishuv. Hamas ikki davlat yechimini rad etadi va Isroilni yo‘q qilishga ahd qilgan. Isroil o‘ziga tahdid solmasligi uchun Falastin davlatini qurolsizlantirish kerakligini aytadi.

Yahudiy manzilgohlari: Aksariyat davlatlar 1967-yilda Isroil tomonidan bosib olingan erlarda qurilgan yahudiy aholi punktlarini noqonuniy deb biladi. Isroil buni tan olmaydi va bu yerlar bilan tarixiy va Bibliyadagi aloqalarni keltiradi. Bu manzilgohlarning kengayishi Isroil, Falastin va xalqaro hamjamiyat o‘rtasidagi eng bahsli masalalardan biridir.

Quddus: Falastinliklar musulmonlar, yahudiylar va nasroniyalar uchun muqaddas bo‘lgan joylarni o‘z ichiga olgan sharqiy Quddusni o‘z davlatlarining poytaxti bo‘lishini istashadi. Isroilning aytishicha, Quddus o‘zining "bo‘linmas va abadiy" poytaxti bo‘lib qolishi kerak. Isroilning Quddusning sharqiy qismiga da’volari xalqaro miqyosda tan olinmaydi. Tramp Quddusni Isroilning poytaxti sifatida tan oldi, ammo shaharda Isroilning yurisdiktsiyasi qanday bo‘lishini belgilamadi va 2018-yilda AQSH elchixonasini u erga ko‘chirdi.

Qochqinlar: Bugungi kunda 5,6 millionga yaqin falastinlik qochqin bor – asosan 1948-yilda qochganlarning avlodlari – Iordaniya, Livan, Suriyada va Isroil tomonidan bosib olingan G‘arbiy Sohil va G‘azo sektorida yashaydi. Falastin ma’muriyati Tashqi

ishlar vazirligiga ko‘ra, ro‘yxatga olingan qochqinlarning qariyb yarmi fuqaroligi yo‘q, ularning aksariyati gavjum qochqinlar lagerlarida yashaydi.

Falastinliklar uzoq vaqtidan beri qochqinlar millionlab avlodlari bilan birga o‘z joylariga qaytishiga ruxsat berishni talab qilib keladi. Isroilning aytishicha, falastinlik qochqinlar uning chegaralaridan tashqarida joylashtirilishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Арабские страны: История, экономика, политика (сб. ст. ред. Колл. Р.Н.Андреасян и др.) М.1986.
2. Архипов В. Палестина глазами русского путешественника. Азия и Африка сегодня №7. 2005.
3. Васильев А.М. История Саудовской Аравии. М.1982.
4. Всемирная история. С древнейших времен до наших дней. Под. ред.Поляка Г.Б. М.1997.
5. Иран. Очерки новейшей истории. Арабаджян А.Э. Дёмин А.И. М.1976.
6. Князев А.Г. Египет после Насера. 1970-1981. М.1980.
7. Ланда Р.Г. Освободительная борьба арабов Палестины (1948-1967 гг).Народы Азии и Африки, 1976. №1.
8. Международные отношения на Балканах и Ближнем Востоке. Сб. научных трудов Ур.Г.У. им А.М.Горького. Ответ. Ред. И.Н. Чемпалов. Свердловс.1988.
9. Нишонов М. Яқин Шарқ муаммоси ва мажарони тинч ҳал этиш жараёнлари (1948-2002). Т., 2004.
- 10.Новичев А.Д. История Турции. Л., 1973.
- 11.Очерки истории Турции. Госратян М.Л. и др. М.1983.
- 12.Политика Англии на Ближнем и Среднем Востоке. М., 1966.
- 13.Розалиев Ю.Н. Новая и Новейшая история стран Азии и Африки. 1987.